



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

1. Karimov G'. O'zbek demokratik shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti. Filol. fan. d-ri ... diss. Toshkent 1962 yil; Muqimiy hayoti va ijodi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – T., 1970-yil; Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi G'.Karimov. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974 yil.
2. Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi G'.Karimov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974, 20-bet.
3. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. O'quv qo'llanma. – T.: "NISO POLIGRAF" nashriyoti 2017 yil, 98-bet.
4. Yunusov Ravshan. Faxriddin Sodiqov. – T.: "UNESCO". 2005-yil, 31-bet.
5. https://www.youtube.com/watch?v=x4Yeu2_hLEE

“TOHIR VA ZUHRA” MUSIQALI DRAMASINING YARATILISH TARIXIDAN

G.A. ABDUSAMATOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
“O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida o'qituvchisi.*

***Annotatsiya.** Maqola “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi deb nomlanadi. Mazkur maqolada benazir o'zbek san'atkorlari – xalq shoiri Sobir Abdulla va atoqli bastakor To'xtasin Jalilov tomonidan 1939-yilda yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi va taqdiriga oid ma'lumotlar bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:** musiqali drama, maqom, teatr, ashula, bastakor, doston, uvertyura.*

Atoqli dramaturg, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'rifiga ko'ra, *“Teatr - ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir!”* Darxaqiqat, dunyo bo'ylab eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Xususan, dostonnamo mavzulardagi “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” singari sahnaviy asarlar uzoq yillarga respublikamiz teatrlari bisotida saqlanayotgani bejiz emas. Ayniqsa, Sobir Abdulla bilan To'xtasin Jalilov hamkorligida yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi tez orada o'zbek xalqining eng sevimli spektakliga, teatr sahnasining guldastasiga aylanganini alohida e'tiroflash joiz.

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi O'zbekiston xalq shoiri, taniqli yozuvchi va dramaturg Sobir Abdullaning 1937-yilda Moskvada o'tkazilgan birinchi O'zbekiston adabiyoti va san'ati o'n kunligidagi ishtiroki bilan bog'liq. Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, akademik Naim Karimovning “Tohir va Zuhra” ijodkori” nomli maqolasida⁵² benazir shoir va dramaturg Sobir Abdullaning shaxsiy esdaliklari bayon etiladi. Unda yozilishicha: “...delegatsiya rahbari Akmal Ikromov Moskva teatrlaridan birida Shekspirning “Romeo va Julyetta” spektakli namoyishiga meni chorlab, bunday dedi: “Sobirjon,

⁵² Mazkur maqola durdona sahna asari bo'lmish “Tohir va Zuhra”ning yaratilishiga 80 yil to'lgani munosabati bilan yozilgan // Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori”. // Yangi O'zbekiston. 2021 yil, 30 yanvar, 21-son.

o‘zbek xalqida nima ko‘p, baxtsiz oshiq va mashuqalar haqidagi xalq ertaklariyu dostonlari ko‘p. Navoiy ham “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” kabi dostonlarni yozgani bejiz emas. Siz Shekspirning shu asarini ko‘rib, o‘zbek xalqining ham Romeo va Julyetta singari muhabbat shaydolari haqida sahna asarini yozing”⁵³. Shu tariqa Sobir Abdulla spektaklni tomosha qilgach, bunday o‘ta ma’suliyatli ishni bajarish uchun avval xalq dostonlarini o‘rgana boshlagan. Avvaliga o‘zbek xalqining “Tohir va Zuhra” ertagiyu, dostonlarini o‘qib chiqib, shu yilning o‘zidayoq shu nomli bo‘lg‘usi spektakl uchun pyesa yozadi. Xususan, atoqli shoirga tegishli esdaliklar bilan bo‘lishgan adabiyotshunos olimi Malaxat Abduraxmonovanning keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra, “...onam yaxshigina savodli, o‘qimishli ayol bo‘lib, afsonaviy kitoblarni o‘qishga o‘ch edilar. Ayniqsa, qish kunlarida sandal chetida ko‘zoynak taqib, bizga juda ajoyib qissalar, dostonlar o‘qib berar, biz esa zavq bilan tinglar edik. Birinchi marta “Tohir va Zuhra” dostonini ham onamdan eshitganman.”⁵⁴. Binobarin, shoir xalq dostonidagi sevgi, vafo kabi tuyg‘ularga sodiq oshiqlar timsolini o‘z talqinida yaratish uchun uch yil mobaynida mehnat qilgan.

Mazkur musiqali dramadagi Tohir bilan Zuhraning vafoli, lekin fojiviy muhabbati haqidagi voqealar bilan “Romeo va Julyetta”dagi voqealar o‘rtasida mushtaraklik bor. Chunki, ikkisida ham sevgi, vafo mavzusi avj pardalarda tarannum etiladi, muhabbat intihosi fojia bilan yakunlanadi.

Ma’lumki, Sobir Abdullaning teatr dramaturgiyasiga kirib kelishi dastlab 1931-1936-yillari Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatrida adabiy emakdosh sifatida boshlangan. U aynan shu jamoada bastakor To‘xtasin Jalilov bilan ijodiy hamkorlik qiladi. So‘ngra Toshkentda O‘zbek davlat filarmoniyasi, Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi adabiy emakdosh sifatida xizmat qiladi. Sobir Abdulla o‘z talqinida pokiza, lekin fojiali sevgi mavzusi, jamiyatdagi zulm va adolatsizlikka qarshi kurash voqealarini jonlantiradi.⁵⁵ Natijada epik turga mansub kuchli ishq-muxabbat syujeti asosida badiiy lashtirilgan sahna asari ustida ish uzil-kesil amalga oshadi. Xususan, Tohir va Zuhraning his-tuyg‘ularini, orzu va umidlarini, xatti-harakatlarini hassos sozanda va bastakor To‘xtasin Jalilov xalqchil uslubda, go‘zal va maftunkor musiqa namunalari orqali aks ettiradi. Bilamizki, “Tohir va Zuhra”gacha romantik mavzu asosida yaratilgan bir qator sahna asarlari viloyat va poytaxt teratrlarida tomoshabinlarga havola etilgan bo‘lsada, biroq u kabi talaygina ihlosmandga erisha olmaganini tayin. Musiqashunos To‘xtasin G‘ofurbekov ta’kidlaganidek, “... “Farhod va Shirin” (1922), “O‘rtoqlar” (1930), “Layli va Majnun” (1933), “Gulsara” (1936) singari musiqali dramalar “Tohir va Zuhra”dek tom ma’nodagi shoh asar darajasiga ko‘tarila olmadi.”⁵⁶

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasida qahramonlarning shoirona tabiati, oddiy va samimiyligi, taqdirklarining murakkabligi musiqiy jihatdan xalqchil uslubga tayanilgan holda, badiiy-barkamol tarzda amalga oshirilgan. Uni har bir tomoshabin

⁵³ Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori”. // Yangi O‘zbekiston. 2021 yil, 30 yanvar, 21-son.

⁵⁴ Abdurahmonova M. Sobir Abdulla. “Fan” nashriyoti, Toshkent-1980., 78-bet.

⁵⁵ Tojiboyeva O. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o‘rni. San’atshunoslik fanlari doktorlik dissertatsiyasi. // Diss.-504/2012. Toshkent – 2011, 84-bet.

⁵⁶ Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori”. // Yangi O‘zbekiston. 2021 yil 30 yanvar, 21-son.

hayajon bilan kuzatadi, maroq bilan tinglaydi. Avvalambor, spektakldagi go‘zal, dilkash ariya, qo‘shiq va ashulalarni mohirona bastalagan atoqli bastakor, sozanda va ustoz, musiqali dramalar “otaxoni” To‘xtasin Jalilovni tilga olishimiz shart, albatta. XX asrning birinchi yarim yilligida To‘xtasin Jalilov respublikadagi qator musiqali teatrlarda badiiy rahbar bo‘lib xizmat qilgan ekan, qirqqa yaqin sahnaviy asarlari bilan san‘at olamini boyitishga muvaffaq bo‘lgan. Jumladan, “Tohir va Zuhra”, “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Alpomish”, “Nurxon”, “Ravshan va Zulxumor” singari musiqali dramalari uchun bastalagan dilbar kuy, qo‘shiq va ashulalari teatr shinavandalari orasida mashhur bo‘libgina qolmay, balki o‘zbek xonanda va sozandalarining kamol topishida o‘rni salmoqli. Zero, T.Jalilovning ijodiy merosi o‘zining xalqchilligi bilan aynan musiqali drama janrining gullab-yashnashiga ulushi katta bo‘ldi. Shu o‘rinda, o‘zbek musiqashunosligi vakili Ilyos Akbarov qalamiga mansub “To‘xtasin Jalilov” nomli monografik ocherkda bitilgan quyidagi ta’rifni keltirish o‘rinli. Unga ko‘ra, “... birgina Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida “Tohir va Zuhra” ikki ming marotabaga yaqin o‘ynaldi.”⁵⁷

Bilamizki, Sobir Abdulla va To‘xtasin Jalilovlarning “Tohir va Zuhra”si ilk bor rejissyor Mamadali Xaydarov tomonidan sahnalashtirilib, 1939-yili Farg‘ona viloyat musiqali drama teatrida namoyish etilgan. Bunga oid dalilli ma’lumotlar mazkur teatrdan ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan rejissyor Solijon Axmedovning “Farg‘ona davlat musiqali teatri 40 yil ijodiy izlanishda” nomli maqolasida keltirilgan. Unga ko‘ra, “... 1939-yil O‘zbekiston xalq shoiri Sobir Abdulla hamda xalq artisti To‘xtasin Jalilov hamkorlikda “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi ustida ish olib bordi. Spektakl shu yilning o‘zida sahnalashtirilib, Katta Farg‘ona kanali quruvchilari uchun Farg‘ona viloyat musiqali teatrining ijodiy kollektivi tomonidan namoyish etildi.”⁵⁸

“Tohir va Zuhra”da benazir bastakor musiqasining syujet voqealari ruhiga uyg‘unligi, ta’sir kuchining o‘tkirliги bilan e’tiborlidir. Xususan, O‘zbekiston xalq artisti, farg‘onalik aktyor Fayzulla Axmedov ushbu spektaklning zahmatkash ijodkorlari haqida hotirlab, shunday degan ekan: “To‘xtasin Jalilov bilan Sobir Abdulla “Tohir va Zuhra” ustida ish olib borganlari hali hanuz yodimda. Barcha ijodkorlar Sobir Abdullaning bog‘ida to‘planishar domla matnni yozib tursalar, To‘xtasin aka kuyini bastalab o‘sha yerning o‘zida ijrochilarga aytirib ko‘rar edilar.”⁵⁹ Darhaqiqat, hassos san’atkorning olib borgan mehnati samarasi “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi xalq yuragidan chuqur o‘rin egallashida ko‘rindi. Zero, bunga atigi bitta misol keltirishning o‘zi kifoya: musiqali dramadagi Tohir ijro etgan “To‘ylar muborak” ashulasi uzoq o‘tmishdan to hozirgi kunga qadar o‘zbek to‘ylarining muqaddimasiga aylangani ayni haqiqat.

Farg‘ona musiqali teatrida ko‘p yillardan buyon faoliyat olib borayotgan taniqli rejissyor Maxmudjon G‘ulomovning aytishicha, “1939-yilda bastakor To‘xtasin Jalilov, dramaturg Sobir Abdulla va rejissyor Mamadali Haydarovlar

⁵⁷ Akbarov II. To‘xtasin Jalilov. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, T.,1978., 81-bet.

⁵⁸ Axmedov S. “Farg‘ona davlat musiqali teatri 40 yil ijodiy izlanishda (1930-1970).” // Mazkur maqola qo‘lyozmasi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatri arxiviga tegishli. 1970-yil.

⁵⁹ Bu haqda qarang: Zaynab Xudoyorova. Musiqali drama janr sifatida. // Teatr jurnali, 2020-yil, 2-son, 38-bet.

“Tohir va Zuhra”ning inssenirovkasi ustida bir oy tinimsiz ishlaganlar. Spektaklning barkamollikka erishishida muhim bo‘lgan sabablardan biri bu Sobir Abdulla she’rlarining xalq yuragiga yaqin ekanligi bo‘lsa, ikkinchi tarafdin, To‘xtasin Jalilov bastalagan qo‘shiq, ariya va duetlar qahramonlarning tabiatiga uzukka ko‘z qo‘ygandek monand kelgani bo‘ldi. Bunga “Suv kelar”, “Ey quyosh” kabi ariyalar-u, “Otmagay tong” duetini misol qilib aytish mumkin.”⁶⁰ O‘sha kezlarda “Tohir va Zuhra” musiqali dramasida dastlabki bosh qahramonlarni - Mamadali Dadajonov, Qori Toshboyev, Nazira Inog‘omova, Yulduzxon Xo‘jayevalar ijro etganlar.⁶¹

Shuningdek, T.Jalilovning birgina Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi faoliyatini oladigan bo‘lsak, u qisqa vaqt ichida ijodiy jamoani shakllantirib, orkestrni qaror toptirgani, “Tohir va Zuhra” musiqali dramasini sahnaga olib chiqqani unutilmas voqea bo‘ldi. Shu o‘rinda e’tiroflash joizki, “Tohir va Zuhra” spektaklidagi barcha musiqiy namunalarni o‘sha kezlarda Xolxo‘ja To‘xtasinov xalq cholg‘ulari orkestri uchun notalashtirgan.⁶² Xususan, hassos bastakorning nafaqat to‘ng‘ich farzandi X.To‘xtasinov, balki, kenja o‘g‘li Dehqon Jalilovning ham mazkur spektakl muvafaqqiyatida o‘rni salmoqli. Zotan, Dehqon Jalilov ham dirijyor, ham bastakor sifatida otasi kabi o‘zbek teatri san’atining rivoj topishida o‘z hissasini qo‘shgan san’atkordir.⁶³ Farg‘onalik sozanda va pedagog Azizxon Jalilov o‘z otasi Dehqon Jalilov bilan bog‘liq xotiralarini shunday eslaydi: “O‘shanda chamasi 11 yoki 12 yoshli bola edim. Bir kuni “To‘ylar muborak”ni hirgoyi qilib tursam, otam shunday dedilar: “Bolaligim xaqidagi xotirani senga aytib bermoqchiman. Qirq birinchi yil, dekabr oyi edi... Muqimiy teatrida “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining navbatdagi repetitsiyasida otam (To‘xtasin Jalilov xaqida so‘z bormoqda.) orkestrga dirijyorlik qilish vazifasini menga yukladilar. Hayajonlanib dirijyorlik qila boshladim. Berilgan vazifani uddasidan chiqqanim boismi, spektaklning navbatdagi namoyishida orkestrni boshqarish mening zimmamga tushdi. O‘shanda men 11 yoshda edim, o‘g‘lim.”⁶⁴ Darhaqiqat, benazir bastakor o‘z zamonida hayotiy turmush qiyinchiliklari tufayli musiqa savodini o‘rgana olmagan bo‘lsada, biroq, o‘z farzandlarini san’at sohasida yetuk ilmiy shaxs qilib yetishtirishgan. Shu tariqa bastakorning o‘z ushalmas orzularini ro‘yobga chiqargan bo‘lsa ajab emas.

Yana musiqashunos Otanazar Matyoqubovning atoqli bastakor ijodiga bag‘ishlab yozgan maqolasida keltirilishicha, “To‘xtasin Jalilov ijodining gullab-yashnagan davri 1940-yillarga to‘g‘ri keldi. Shu davrda Muqimiy nomidagi poytaxt musiqali drama va komediya teatrida ishlagan marhum ustoz Turg‘un Alimatovdan bastakorning ijod uslubi, butun vujudi bilan berilib ishlashi, kerak bo‘lganda

⁶⁰ To‘xtasin Jalilovning o‘rtancha farzandi Dehqon Jalilov Farg‘ona davlat musiqali teatrida 1960-1990 yillar mobaynida bosh dirijyor lavozimida faoliyat olib borgan.// Mazkur Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri rejissyori Mahmudjon G‘ulomov bilan suhbatdan. 2023-yil yanvar.

⁶¹ Axmedov S. “Farg‘ona davlat musiqali teatri 40 yil ijodiy izlanishda (1930-1970).”// Mazkur maqola qo‘lyozmasi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatri arxiviga tegishli. 1970 yil.

⁶² X.To‘xtasinovning farzandi Ubaydulla To‘xtasinov bilan suhbatdan. Mart. 2023-yil.

⁶³ Dehqon Jalilov (1930—1992) — o‘zbek dirijyori, bastakor. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi. U “Xolisxon”, “Noma‘lum kishi” kabi musiqali dramalar muallifi. T. Jalilovning “Qo‘shiqlar guldastasi” saylanma asarlari nota to‘plamini nashr yettirgan.// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Uchinchi jild. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti”, 2000-yil, 535-bet.

⁶⁴ Dehqon Jalilovning farzandi Azizxon Jalilov bilan suhbatdan. Yanvar, 2022-yil.

rejissor, dirijyor va hattoki aktyor va xonanda sifatida ham boshqalarga ustozlik qilgani to‘g‘risida ko‘p eshitganman. Lozim bo‘lganda aktyor hamda sozandalar bilan 7-8 soatlab repetitsiya o‘tkazilar, kerak bo‘lsa, ular teatrdan yotib qolishar ekan.”⁶⁵ Tabiiyki, bunday fidokorlik ibtidosi ulug‘ san’atkor To‘xtasin Jalilovdan boshlangan.

Teatr sahnasida namoyish etiladigan har bir sahna asarining tomoshabin ko‘nglidan chuqur joy olishida nafaqat dramaturg, musiqa muallifi yoki rejissyor mehnati, balki aktyor-xonadalarning iqtidori ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, aktyorning mahoratidan kelib chiqqan holda musiqali drama baho beriladi. Ayniqsa, musiqali teatr aktyorining iqtidori qay darajada ekanligi u ijro etgan biror bir dialog yoki monologdan musiqiy chiqishga silliq o‘tishida namoyon bo‘ladi. Zero, uning sahnadagi holatida sun‘iy ehtiroslar emas, balki, tabiiy hissiyotlar chulg‘ab olishi kerak. Xususan, Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqov, Mashrabjon Yunusov va Mahmudjon G‘ofurovlar Tohir rolini, Tursunxon Ja‘farova, Shahodat Rahimova, E‘tibor Jalilova, Farog‘at Rahmatovalar Zuhra rolini maromiga yetkazib ijro etganlar. Baralla aytish joizki, ularning bunday mahorati tufayli spektaklning umri uzaygan.

40-yillarda Muqimiy teatriga taklif qilingan va ushbu “Tohir va Zuhra”da Jarchi rolini, keyinroq Tohir rolini ijro etgan Ma‘murjon Uzoqov⁶⁶, bir yildan so‘ng Toshkentga kelib mazkur teatrdan ishlagan va spektaklda Hofiz rolini o‘ynagan Jo‘raxon Sultonovlar xizmati tahsinga sazovor, albatta. Zamondosh filologlar Nabijon Soliyev va Muxammadrasul Kimsanovlarning “Ma‘murjon Uzoqov” nomli monografiyasida yozilishicha, “Tohir va Zuhraning g‘amgin sevgi qissasini sahnada sevimli hofizning jonli ijrosida ko‘rish tomoshabinlar uchun zavqli va qiziqarli bo‘lgan. Musiqali dramaning butun voqealari Jarchining jarangdor ovoqli hayqirig‘i bilan boshlanar edi:

Hoy, odamlaru odamla-a-a-a-r!

Bog‘da bitgan bodamla-a-a-a-r!

Eshitmadim demangla-a-a-a-r!

*Eshitganlar jilmangla-a-a-a-r!”*⁶⁷

Ta‘kidlanishicha, keyinroq Ma‘murjon Uzoqovga Tohir roli ishonib topshirilgan kezlarda,⁶⁸ xushovoz hofiz avj pardali ariya va duetlarni maromida kuylab, ko‘plab muxlislarga ega bo‘lgan ekan. Biroq, “... spektakldagi rolni yod olish, sahnada uni ijro etish, yurish-turish, holatga kirish va qo‘shiq aytish, bularni bir-biri bilan bog‘liq ravishda tomoshabinga silliq va choksiz namoyish etish, albatta, hofizga avvaliga mashaqqatli bo‘lgan ekan.”⁶⁹

Bilamizki, badiiy asar ijod va ilhom bilan sug‘orilmasa, sahnada jonlana olmasa butun jarayon shunchaki mehnatga aylanib qolaveradi. Binobarin, bastakor

⁶⁵ Matyoqubov O. Andijon samosi. // “Jannatmakon” jurnali, fevral, 2011 yil.

⁶⁶ Soliyev N., Kimsanboyev M., Ma‘murjon Uzoqov. “Navro‘z” nashriyoti, T., 2015., 55-bet.

⁶⁷ Mazkur manba, 46-47 betlar.

⁶⁸ “1941 yil yanvar oyidan boshlab Toshkentda yangi tashkil yetilgan Muqimiy nomidagi respublika musiqali drama va komediya teatriga Ma‘murjon Uzoqovni aktyor lavozimiga ishga qabul qilinadi. Bir muddatdan so‘ng, Usmon Yusupov daldasi bilan uni Tohir rolini ijro yetishga taklif yetadilar.” Jo‘ravoy Muhitdinov xotiralaridan. // Soliyev N., Kimsanboyev M. Ma‘murjon Uzoqov. “Navro‘z” nashriyoti, T., 2015., 46-bet.

⁶⁹ Urfon Otajon. San‘at mening quyoshimdir (badia). “Yangi asr avlodi”, T., 2006., 34-bet.

T.Jalilov spektakl uchun nafaqat kuy-qo‘shiq bastalashda, balki, so‘z tanlashda, talaffuz qilishda, sahna harakatlarini ishlashda bor kuch g‘ayratini safarbar etgan. Shubhasizki, Sobir Abdulla ham, To‘xtasin Jalilov ham cheksiz ijod manbai bo‘lib tarixda iz qoldirdi. “Tohir va Zuhra” – sahna yuzini ko‘rganiga mana yaqinda 83 yil to‘ladi. Hozirgi vaqtga kelib hayot tarzi o‘zgargani kabi, san’at olamida ham yangi-yangi vosita va uslublari paydo bo‘lmoqda. Biroq, “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi o‘zining xalqchil syujeti, jozibali kuy, qo‘shiq va ashulalari bilan san’atsevar xalq ko‘nglida hanuzgacha yashamoqda.

Xulosa qilib aytish joizki, bugungi kunda tor doiradagi mavzularga tayanib pyesa yozadigan dramaturg, unga “mos” tarzda silliqqina musiqiy sahnalarni bastalaydigan kompozitor, sahnalashtirish bobida ustoz ko‘rmagan rejissyorning, shuningdek, o‘z ustida “tinmay mehnat qiladigan” aktyor-xonandalarning omadi chopgan. Biroq, ular teatr sahnasiga olib chiqqan sayoz musiqali drama spektakl tufayli faqatgina bir kunlik ihlosmandlar olqishiga sazovor bo‘layotgani afsuski, quvonarli emas. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: birgina Muqimiy poytaxt teatrining hozirgi repertuaridan o‘rin olgan spektakllar auditoriyasi qay ahvolda? Kuzatuvlar natijasidan kelib chiqib, aytish joizki, har oyda ikki marotabagacha namoyish etiladigan “Sovchiga er topildi”, “Ayyorgina ayollar”, “Qaychi qudalar” nomli spektakllarni ko‘rish uchun tashrif buyuradigan tomoshabinlar soni, ikki oyda bir marotaba namoyish etiladigan “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Otabek va Kumushbibi” spektakllarini ko‘rish uchun boradigan tomoshabinlar sonidan sezilarli oz. Xususan, musiqashunos Karima Axmedova-Olimboevaning “Узбекская музыкальная драма” nomli tadqiqotida o‘z davrining taniqli dramaturgi bo‘lgan filologiya fanlari doktori Izzat Sultonovning fikrlarini keltirib, shunday yozadi: “Bizda shunday o‘ylashadi: agar drama yoza olmasang, yaxshisi musiqali drama yoz! Biroq, bilishmaydiki, dramadan ko‘ra, musiqali dramani yozish qiyinroq. Chunki unda muhim omil – musiqa mavjud. Xalqimizning sevimli janri bo‘lgan musiqali dramaga biz ijodkorlar diqqatli yondashmog‘imiz lozim.”⁷⁰ Alqissa, har bir sohaning taraqqiy etishi uchun xalq ta’biri bilan aytganda, “o‘z ishining ustasi” bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova M. Sobir Abdulla. “Fan” nashriyoti, Toshkent-1980.
2. Akbarov II. To‘xtasin Jalilov. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, T.,1978.
3. Axmedov S. “Farg‘ona davlat musiqali teatri 40 yil ijodiy izlanishda (1930-1970).” // Mazkur maqola qo‘lyozmasi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatri arxiviga tegishli. 1970-yil.
4. Zaynab Xudoyorova. Musiqali drama janr sifatida. // Teatr jurnali, 2020-yil, 2-son.
5. Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori”. // Yangi O‘zbekiston. 2021.30.01, 21-son.
6. Matyoqubov O. Andijon samosi. // “Jannatmakon” jurnali, fevral, 2011 yil.
7. Soliyev N., Kimsanboyev M., Ma’murjon Uzoqov. – T.: “Navro‘z”, 2015.
8. Tojiboyeva O. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o‘rni. San’atshunoslik fanlari doktorlik dissertatsiyasi. // Diss.-504/2012.Toshkent – 2011.
9. Urfon Otajon. San’at mening quyoshimdir (badia). “Yangi asr avlodi”, T., 2006.

⁷⁰ Bu haqda qarang: Axmedova K. Uzbekskaya muzikalnaya drama. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kand.isskustv. T., 1970., 7-bet.

10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Uchinchi jild. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti’, 2000.

KOMMUNA ISMOILOVA - YURAKLARDA KURTAK OCHGAN SAN’AT

Lobar MO‘MINOVA,

O‘zDSMI “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. O‘zbek an’anaviy xonandalik san’ati ko‘p asrlik tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan holda, zamonlar osha sayqal topib kelayotgan o‘lmas ma’naviy merosdir. Bugungi kunda noyob iste’dodi, betakror ovozi, ustozlarga bo‘lgan ixlosi va iqtidori bilan munosib hissa qo‘shgan, sohir ovoz sohibasi, hayotini san’atga baxsh etgan ustoz san’atkorlardan biri O‘zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilovning ijro yo‘llari va faoliyatini o‘rganmoq va yoshlar orasida targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘z: *an’ana, xonanda, ansambl, jo‘rovoz, usul.*

Kuy, qo‘shiq, ijro san’ati-inson ruhiyatiga tortiq etilgan ilohiy ne’matdir. San’atga bo‘lgan qiziqish Kommuna Ismoilova yuragida aynan qachon kurtak ochganini o‘zi ham bilmaydi. Ammo bu ilohiy kayfiyat uning yuragini bolaligidan zabt etganini yillar o‘tib his eta boshladi. Aslida oilada chinakam san’atkor diyarli bo‘lmagan, ammo ma’rifatga intilish, shuningdek, san’atkorlarga hurmat bajo keltirish, tunlari o‘tirib “Oshiq G‘arib va Shaxsanam”, “Kuntug‘mish” dostonlarini o‘qib, she’riyatidan huzur olgani bor gap, bu esa oilaviy an’ana edi. Sandal ustida miltillab turgan chiroq atrofida o‘nlab ko‘zlar doston voqealar va she’riyatning ta’siridan ilohiy ruhiyat shu’la sochardi, qahramonlarning murod maqsadlarigaga yetishishidan umidvor bo‘lib, yana keyingi tunda ham dostonlar tinglash uchun Qurbon Ismoilovning yosh xonadonida jam bo‘lardilar. Qurbon Ismoilovning vaqtlari bo‘lmagan kezlarda kelinchagi Bekajon kelin dostonning kelib qolgan joyidan davom ettirardi. Dostonlar bu kelin-kuyovga san’atning, ijodning ruhini tortiq etgan bo‘lsa, ular esa bu ruhiyatni qo‘ni-qo‘shnilarga yuqtirdi.

Ana shunday yosh oilaning mazmunli hayotlarini Oллоhi taolo farzand bilan siyladi. Yosh jurnalist Qurbon Ismoilov qizalog‘i Kommuna tug‘ilganda uylariga san’atkorlarni chorlab, bir ajoyib mashvarat o‘tkazganlari oilaning eng baxtiyor kunilaridan biri edi. Qizaloqning o‘nib-o‘shisini istab san’atkorlar duo qildilar, aqiqa bo‘lgan qizaloq issiqqina o‘rnida maza qilib uxlayotgan bo‘lsa ham, yaxshilarning duosi farishtalarga yetib borganiga shubha qilmaymiz. San’atkorlarning ijobatini topayotgan duolari balki ota-onaning xotirasidan ham ko‘tarilib ketgandir, biroq uning yozug‘ida farishtalar bitgan va yosh Kommunaning taqdiri azali san’atkorlikka taqalganini hali bilmasdilar. Biroq xotirada saqlanib qolgani shundaki, oila sohibi Qurbon Ismoilov tomonidan Xiva teatridan chorlangan san’atkorlarni uyida mehmon qilib, bo‘ronli kunda kolxozning aravasida,